

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI



«Himoyaga ruxsat etildi»
Pedagogika fakulteti dekani,
dotsent K.Boymirzayev
«7» 06 2018 y.

5110800-Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi
yo`nalishi bitiruvchisi
Tursunova Gavxar G'anijon qizining

“QALAMTASVIR FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI
TASHKIL ETISHDA AKADEMIK MAKTABNING
AHAMIYATI”
mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
Tasviriy san`at va muxandislik
grafikasi kafedrası mudiri

O‘.Abdullayev dots. O‘.Abdullayev
« » 2018 y.

BMI rahbari: dotsent

B.G‘.Jabbarov B.G‘.Jabbarov

MUNDARIJA

KIRISH	3
I – bob. Qalamtasvir o`quv predmeti va uni o`qitish tizimi	7
1.1. Qalamtasvirni o`quv predmeti sifatida shakllanishi.....	7
1.2. Uyg`onish davri rassomlari ijodida qalamtasvirni tutgan o`rni.....	11
1.3. Peterburg Badiiy Akademiyasida qalamtasvirni o`qitilishi.....	21
II – bob. Zamonaviy ta`lim tizimida qalamtasvir mashg`ulotlarida akademik maktabning ahamiyati	27
2.1. Zamonaviy ta`lim tizimida qalamtasvir mashg`ulotlarga qo`yilgan talablar.....	27
2.2. Tasvirlashning asosiy qonun –qoidalari.....	30
2.3. Shar qalamtasvirini ishlash misolida qalamtasvir qonuniyatlarini o`rganish.....	34
Xulosa	40
Foydalanilgan adabiyotlar	42
Internet ma`lumotlari	44
Ilova	47

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Pedagogika fakulteti dekani,
dotsent _____ K.Boymirzayev
«__» _____ 2018 y.

5110800-Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi
yo`nalishi bitiruvchisi
Tursunova Gavxar G'anijon qizining

“QALAMTASVIR FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI
TASHKIL ETISHDA AKADEMIK MAKTABNING
AHAMIYATI”
mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
Tasviriy san`at va muxandislik
grafikasi kafedrasini mudiri
_____ dots. O'.Abdullayev
«__» _____ 2018 y.

BMI rahbari: dotsent
_____ B.G'.Jabbarov

Kirish.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi natijasida xalqimiz turmush tarzi o`zgardi va tubdan yaxshilandi. Bunday o`zgarishlar esa o`z navbatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarining rivojlanishiga imkon beradigan nazariy hamda amaliy asoslarni chuqur ilmiy taxlil qilish, ularni jadallik bilan xalqimiz turmush tarziga joriy qilish vazifasini qo`ydi.

Ana shunday milliy uyg`onish davrida birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov Mustaqillik bilan bog`liq barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalar qatorida inson, ayniqsa yosh avlod ma`naviyati, erkin, ozod shaxs ma`rifatiga, madaniyat va san`atning rivojiga alohida e`tibor berdi.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, - deb yozadi birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov - ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g`oyat ulkan, bebaho ma`naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo`lib qoldi. Biz ma`nafiy qadriyatlarni tiklashni milliy o`zlikni anglashni o`shidan, xalqning ma`naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.”¹

O`zbekistonda yangi ma`naviy – g`oyaviy yo`nalishlarning shakllanishi o`z navbatida, milliy va zamonaviy san`atimizning barcha sohalariga samarali ta`sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy - ahloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g`oyalari, yangilanish tamoyillari tasviriy va amaliy san`atning barcha tur va janrlarida yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Tasviriy san`atning tur va janrlari keng qamrovli bo`lib, ularning har biri alohida-alohida ilmiy tadqiqot ishlariga, izlanishlarga, yangiliklarga ega. Biz bitiruv malakaviy ishimizni tasviriy san`atning barcha tur va janrlariga birdek zarur bo`lgan, ularning barchasining asosi hisoblangan qalamtasvir mashg`ulotlari va uni tashkil etishning o`ziga xos tomonlariga qaratishni lozim topdik. Chunki, bo`ljak

¹ И. Каримов “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида:

rassom bo`ladimi, haykaltaroshmi yoki xalq amaliy san`ati ustadimi barchasi eng avvalo qalamtasvir bilan yaxshi tanish bo`lishi va qalamtasvir ishlash ko`nikma va malakasiga ega bo`lishi shart. Chunki, bo`lg`usi rassom yoki haykaltarosh, amaliy san`at ustasi yoki tasviriy san`at o`qituvchisi bo`ladimi, qat`iy nazar qalamtasvir asoslari orqaligina mahorat maktabini egallaydi, borliqni haqqoniy tasvirlashga erishadi.

Qalamtasvir asoslari bo`lajak rassomlarga eng avvalo moddiy olamdagi voqea va hodisalarni kuzatish, uning tashqi ko`rinishi, tuzilishi, rangi - tusilarini tashvirlash bo`yicha nazariy va amaliy bilim beradi, ko`nikma va malaka hosil qiladi. Tasvir ishlashni naturaga asoslanib o`rganiladi, biroq yaratilgan tasvirda badiiy to`qimalar ham real narsaning haqiqiy tasavvurini yaratishda muhim omil bo`ladi. Shu boisdan ham qalamtasvir o`quv predmeti amaliy mashg`ulotlari jarayonida oddiy geometrik gips modellardan boshlab, gips haykallar, tirik odam qomati ham ishlanadi. Xotira va tasavvur asosida mavzuli kompozitsiya tuzish va uni ishlash esa natura asosida ma`lum vaqt ishlab tajriba ortirilgandan keyingina bajariladi.

Qalamtasvir o`quv predmetidan amaliy mashg`ulotlarni shu tarzda tashkil qilish, ishlash uslubi haqida o`zbek tilidagi darslik, o`quv-uslubiy qo`llanmalarda kerakligicha ma`lumotlar berilgan. Ammo shu taxlitda o`qitish tizimi nima deb ataladi va u nimasi bilan boshqa maktablardan farq qiladi, uni afzallik tomonlari nimada? - kabi qator savollar ko`pchilikni qiziqtiradi. Ba`zan esa rassom bo`lish uchun bir ustozni qo`lida bir necha yil shug`ullansa etarli emasmi?- degan gaplar ham eshitilib qoladi.

5110800-Tasviriy san`at va muxandilik grafikasi bakalavriat ta`lim yo`nalishining eng oxirgi namunaviy o`quv rejasida (Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan 2017 yil 4 avgustda tasdiqlangan) qalamtasvir o`quv predmeti umumkasbiy fanlar blokida 3.05 raqami bilan keladi va u uchun ja`mi 570 soat belgilangan bo`lib, undan 342 soati auditoriya mashhulotini tashkil qiladi va 4 semestr davomida xaftasiga 4 soatdan, 5 semestrda esa haftasiga 2 soatdan

o`qitilishi rejalashtirilgan. Ma`ruza o`tilmaydi, barchasi amaliy mashg`ulotdan iborat.

Talabalar qalamtasvir o`qitilishining akademik maktabini egallashlari uchun bu kamlik qiladi va qalamtasvirdan etarli ko`nikma va malakani egallab bo`lmaydi. Texnik mahoratni egallash esa rassom uchun badiiy g`oyani ifodalashning asosi ekanligini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Qalamtasvir mashg`ulotlari barcha o`quv yurtlarida akademik maktab asosida tashkil qilinadi. Akademik maktab deganda nimani tushunish kerakligi haqida esa o`zbek tilida deyarli adabiyotlarda ma`lumotlar yo`q. Borlarini ham rus, ingliz, nemis va shu kabi boshqa xorijiy tillarda uchratish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalar va yosh rassomlarga qalamtasvir o`qitish tarixi va unda akademik maktabni tutgan o`rni haqida kerakli ilmiy ma`lumotlarni etkazib berish maqsadida bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Qalamtasvir fanidan amaliy mashg`ulotlarni tashkil etishda akademik maktabning ahamiyati”** – deb belgilab oldik.

Bitiruv malakaviy ishimizda qalamtasvirni o`quv predmet sifatida o`qitilishi tarixi va uni o`ziga xos tomonlari haqidagi tajribalarni, zaruriy ilmiy ma`lumotlarni ja`mlab, yosh rassomlar uchun o`zbek tilidagi ilk ilmiy manbaaga asos solish **m a v z u i n i n g d o l z a r b l i g i n i** tashkil qiladi.

Ishimizning **i l m i y y a n g i l i g i** esa biz tanlagan mavzu bo`yicha birinchilardan bo`lib tadqiqot ishlarni olib borganimizda hamda qalamtasvir tarixini atroflicha ilmiy taxlil qilib, unda akademik maktabni tutgan o`rnini ochib berganimizda o`z aksini topadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning **a m a l i y a h a m i y a t i** esa mavzu materiali asosida talaba-yoshlarga tasviriy san`at sirlarini egallashlari yo`lida qalamtasvir o`quv predmeti amaliy mashg`ulotlari jarayonida akademik maktabni ahamiyatini berishimizda namoyon bo`ladi. SHuningdek, talaba –yoshlarning ijodiy ishlarining rang-barangligi hamda saviyasi oshishida, tashkil qilinadigan ko`rgazma va ko`rik-tanlovlarda ham yaqqol ko`zga tashlanadi degan umiddamiz.

Malakaviy **i s h i m i z n i n g m e t o d o l o g i k a s o s i** ni mustaqil O`zbekiston ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi davlat xujjatlari, qalamtasvir asoslari, tasviriy san`at texnologiyasi va nusxa ko`chirish o`quv predmetlarining na`munaviy fan dasturlari, darslik, o`quv qo`llanmalar, rassomlar ijodi, kundalik va esdaliklari, gazeta, jurnal materiallari tashkil qiladi.

Mavzuni ilmiy taxlil qilib, chuqur ochib berish uchun biz o`z oldimizga quyidagi **maqsad va vazifalarni** belgilab oldik:

- Qalamtasvir o`quv predmetiga oid darslik, o`quv-uslubiy qo`llanmatlarni taxlil qilish;
- Mavzuga oid internet ma`lumotlarini, xorijiy manbaalarni taxlil qilish;
- Rassomlar ijodida akademik maktabni tutgan o`rnini o`rganish;
- Qalamtasvir o`qitish tarixi bilan yaqindan tanishish;
- Uzoq muddatga mo`ljallangan qalamtasvir mashg`ulotlari va unga qo`yilgan talablarni taxlil qilish;
- O`rganilgan manbaalar va tajribalarga asoslangan holda bitiruv malakaviy ishini yozma matnini tayyorlash;
- Olib borilgan tadqiqot mavzu materiali asosida taklif va mulohazalar tayyorlash.

I – bob. Qalamtasvir o`quv predmeti va uni o`qitish tizimi.

1.1. Qalamtasvirni o`quv predmeti sifatida shakllanishi.

Qalamtasvir o`quv predmeti tarixini o`rganishdan oldin qalamtasvirning o`zi nima ekanligini bilib olishimiz zarur bo`ladi.

Qalamtasvir ishlanishiga ko`ra akademik va ijodiy tasvirlarga bo`linadi. **Akademik qalamtasvir** – bu uzoq vaqt davomida tasvirlashga o`rganish, turli shakl va belgilarni hamda tasvirlash usullarini o`zlashtirish maqsadida bajariladigan tasvir hisoblanadi. Unga buyumning tashqi ko`rinishi tasvirini belgilovchi barcha asosiy jihatlar va ichki sifatlarini ochib berishga oid plastik anatomiya taalluqlidir.

Ijodiy qalamtasvir – bu rassomning fikri, hissiyoti va dunyoqarashini obrazli ifodalovchi tasviriy san`at asaridir. O`quv va ijodiy ishlarda qoralama, xomaki tasvir, etyud kabi atamalar keng qo`llaniladi.

“**Qalamtasvir**”² deb - tasvirlashning grafik vositalari bo`lgan chetki chiziq, chizgilar va dog` asosida qo`lda bajarilgan tasvirga aytiladi. Tasvirlashning grafik vositasi bo`lgan chiziq, chizgilar va dog`larning turli hamohangligi, uyg`unligi asosida qalamtasvirda modelning tusi, yorug` - soyasi va plastik echimi topiladi. Qalamtasvir mashg`ulotlarida ikki o`lchamli yuzalarda uch o`lchamli olam aks ettiriladi.

Qalamtasvir bajarish uslubiga ko`ra **asl nusxa** va **bosma** turlarga bo`linadi. Asl nusxa asar rassom tomonidan yaratilgan yagona namuna hisoblanadi. Bosma tasvir esa qog`oz yuzasiga qolipdan tushirilgan rasmdir, u “**estamp**”- deb yuritiladi. estampning bir necha ko`rinishi mavjud, ular: gravyura, linogravyura, litografiya, ksilogravyura hisoblanadi.

Qoralama deb esa qisqa vaqt davomida bajarilgan tasvirga aytiladi. Buyum tasviri yoki uning qismlarining mukammal o`rganilishi **etyud** orqali amalga oshiriladi. etyud va qoramalarda chuqur o`rganilib yig`ilgan haqiqiy materiallar ijodiy asar yaratish jarayonida foydalanishga mo`ljallangan dastlabki chizigilar bo`lib, ular **xomaki nusxa** deb yuritiladi.

² Популярная художественная энциклопедия. Книга II - М; 1986 г. 176 стр.

Qalamtasvir tarixi juda ham qadimiy bo`lib, tasviriy san`atning eng birinchi turi hisoblanadi. Poleolit davrida qoya tosh va g`orlarga ibtidoiy odam tomonidan ishlangan hayvon va manzara tasviri buni isboti hisoblanadi. Neolit davriga kelib qalamtasvir bezak ko`rinishida ham aks etadi. Quldorlik davrida qalamtasvir tekis satx yuzasiga tasvir ishlash vositasi sifatida shakllandi. Qadimgi Misr yangi podsholik (er.av XVI-XI asr) davrida tasvir papirus qog`oziga ishlandi va sof grafik tasvirlash vositasi sifatida shakllandi. eramizdan avvalgi V asrning 3-choragiga kelib vazalarga tasvir ishlash asosida rivojlangan qalamtasvir o`zining plastikasi bilan ajralib turgan. eramizdan avvalgi IV asrda esa Qadimgi Xitoyda tush yordamida shoyi mato va qog`ozga ishlangan tasvirlar SHarq san`atining yuksak darajadagi rivojiga asos soldi. Afrosiyob xarobalaridan topilgan devoriy sur`atlar O`zbekistonda ham qalamtasvir va uning rivojiga juda ham qadimdan katta e`tibor berilganligining yorqin namunasi sanaladi.

O`rta asrlarga kelib chiziqli qalamtasvirdan me`morlikda, mahobatli badiiy bezashda ham keng ko`lamda foydalanish boshlanadi. Grafikaning etakchi turi sifatida O`rta asrlar miniatyura san`ati ta`sirida qalamtasvir yanada rivojlandi. Milliy san`atimiz bo`lgan minatyuraning buyuk namoyondalari ham qalamtasvirda chiziq go`zalligi va plastikaga katta e`tibor qaratdilar.

Italiya O`yg`onish davriga kelib esa qalamtasvirning nazariy va amaliy asoslari qayd qilingan o`quv, ijodiy uslublari ishlab chiqildi. Bu davrga kelib grafik tasvirlardagi yorug`-soya, perspektiva, plastik anatomiya ilmiy jihatdan taxlil qilish rivojlandi. Naturadan tasvir ishlash keng tarqaldi. etyud, qoralama, xomaki tasvir ishlash va anatomiyani o`rganishga asoslangan dastgohlik qalamtasvir shakllandi. Bu paytda O`rta Osiyoda bo`lgani kabi Evropada ham ustoz-shogird tizimining ilk kurtaklari namoyon bo`la boshladi.

Taxminan XV asr o`rtalaridan boshlab Evropalik rassomlar ijodlarida kartondan foydalanishni boshlagan. Karton - badiiy asarning haqiqiy o`lchamiga teng bo`lgan qalamtasvir nusxasi bo`lib, uni Verokkio birinchilardan bo`lib qo`llagan.

XVI asrga kelib Italiyada Pizanello, A.Pollayola, A.Manten'ya, V.Karachcho kabi rassomlar ijodi aniq plastik echim va detallashtirishga xos bo'lgan bo'lsa, Yuqori Uyg'onish davrining buyuk rassomlari Leonardo da Vinchi, Rafael' Santi, Mikelandjelo Buanarotti, Andrey del' Sartolar ijodida qalamtasvir o'zining ifodaviyligiga va o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Titsian, P. Veroneze, Ya. Tintorettilar ijodida esa qalamtasvirning rangtasvirga xos bo'lgan erkin, eskiznamo uslubi paydo bo'ldi.

XVII asrda A.Dyurer, M.Nitxardtlar ijodida chiziqli va chizgili qalamtasvir muhim ahamiyat kasb etganini ko'rishimiz mumkin. Bu paytga kelib Gollandiyada kichik X.Xolbeyn, Frantsiyada J. va F. Kluelar portret qalamtasvirini rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shdilar.

XVII asrda G'arbiy Evropalik rassomlar etakchilikni o'z qo'liga oladi. Jumladan, Gollandiyada R. Rembrandt, YAn Van Goyen va YAn van Reysdal, Frantsiyada O. Kallo, N. Pussen va K. Lorrenlar ijodida qalamtasvir o'zining g'ayri oddiy ichki echimi va erkin uslubi bilan ko'zga tashlandi.

XVIII asrda Frantsiyada A.Vatto, F.Bushe, Yu. Rober, O. Frogonar Italiyada Dj.V.Tepol, F.Gvardi, Angliyada T.Geynsborolar naturadan qalamtasvir ishlash, mavzuli kompozitsiya tuzish, manzara tasvirini ishlash va shu kabi qalamtasvirning boshqa ko'plab turlari rivojiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shdilar

XIX asrga kelib F.Goya, T.Jeriko, e.Delekrua, O.Dome kabi rassomlar qalamtasvirning jozibaligiga, ifodaviyligiga o'zlarining ijodlari bilan ulkan hissa qo'shdilar. SHuningdek, Barbizon maktabi vakillari ham manzarani tasvirini qalamda haqqoniy ishlash bo'yicha mahoratlarini namoyon qilganlar. XIX asrning Evropadagi buyuk qalamtasvir ustalariga Germaniyadan K.D.Fridrix, T.Mensel, M. Bush, Angliyadan I.Tyorner, E.Byorn-Jons, U.Morris, Gollandiyadan Y.Israels, Ya.B.Yangkind, Chexiyadan Y.Manes, M.Alesh, Polshadan A.O.Orlovskiy, Ya.Mateykolarni kiritish mumkin.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida qalamtasvir shu darajada rivojlandiki, hattoki u ba'zida fotosur'at darajasidagi mexanik ishlashgacha borib etdi.

Qalamtasvir “Modern” uslubini asosiy xususiyatlarini o`zida aks ettirdi. Kitob va jurnal grafikasi rivojlanishiga zamin yaratdi.

Bu paytga kelib Rossiya Badiiy Akademiyasi qalamtasvir sohasida etakchi o`ringa chiqib oladi. Chunki, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Peterburg Badiiy Akademiyasi rassom - pedagoglari A.P.Losenko, A. P. Sapojnikov, G.I.Ugryumov, A.I.Ivanovlar qalamtasvir o`qitishga katta e`tibor berib, natura asosida ishlashni keng yo`lga qo`ydilar. Ulardan oldin esa asosiy e`tibor rassom asarlaridan nusxa ko`chirishdan iborat bo`lgan edi. Bu joyda taxsil olgan O.A.Kiprenskiy, M.I.Korlovskiy, A.E.Egorov, U.K.Shebuev, F.P.Tolstoy, K.P.Bryullevlar tomonidan naturani haqqoniy tasvirlashga, uzoq muddatli qalamtasvir mashg`ulotlariga alohida o`rin ajratildi. Qalamtasvir san`atini rangtasvirga xos bo`lgan, tus nisbatlarini ishlash A.A.Ivanov kabi rus rassomlari ijodining asosini tashkil qildi. Qalamtasvirning rivojiga A.O.Orlovskiy, A.G.Venetsiyanov, P.A.Fedotov, T.G.Shevchenko kabilar rassomlar ham o`z ulushlarini qo`shishgan.

XIX asr rus akademik qalamtasvir san`atining rivojiga A.G.Venetsiyanov, I.N.Kramskoy va ayniqsa P.P.Chistyakovlar juda ham katta hissa qo`shgan desak mubolag`a bo`lmaydi. Bunga P.P.Chistyakov qo`lida taxsil olgan I.E.Repin, V.I.Surikov, V.M.Vasnetsov, V.D.Pol`enov V.A.Serov, M.A.Vrubel, D.N.Kardovskiy kabi buyuk rassomlarning qalamtasvir taraqqiyotiga shu davrgacha bo`lmagan ulkan hissalarini misol qilib keltirish mumkin. Bularning barchalari jahonga mashhur bo`lgan rangtasvir san`ati ustalari bo`lib, ular natura asosida qalamtasvir ishlash bilan birgalikda xotira va tasavvur asosida ishlashga ham juda katta e`tibor berganlar. Ular tomonidan bajarilgan o`quv qalamtasvirilar hozirga kelib o`ziga xos bo`lgan badiiy asar darajasida o`rganilmoqda.

“Sayyor rassomlar” birodorligi a`zolari esa qalamtasvirda mavzuli kompozitsiyasining rivojiga e`tiborini qaratishgan. I.N.Kramskoy va N.A.Yaroshenkolarning portretlari, A.K.Savrasov, I.I.Shishkin, F.A.Vasil`yevlarning manzaralari o`zining juda ham haqqoniyligi, ifodaviyligi

bilan hozir ham juda ko`plab rassomlar, san`atshunos olimlarning diqqat - e`tiborini o`ziga jalb qilib kelmoqda.

XX asr jahon san`atida sobiq Ittifoq rassomlarining ham o`ziga xos alohida o`rni bo`lgan. Jumladan, D.A.Shmarinov, E.A.Kibrik, A.A.Deyneka, B.I.Prarov, A.M.Laptev, N.A.Ponamaryov kabi mashhur rassom-pedagoglarni alohida ta`kidlash mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyin ularning qatoriga A. Abdullayev, L. Abdullayev, S. Abdullayev, M. Nabiyev, Ch. Axmarov, R. Axmedov, T. Oganosov, M. Saidov, R. Choriyev, V. Burmakin, A. Mirzayev, B. Jalolov kabi juda ko`plab o`zbekistonlik rassomlar ham kirib kelganini ham alohida ta`kidlash lozim.

O`zbekistonda akademik qalamtasvir asoslari fan sifatida mustaqillik yillarida o`zining yuqori darajasiga ko`tarildi, oliy o`quv yurtlari o`quv rejasiga kiritildi va uni o`qitishda amaliy mashg`ulotlar bilan birga nazariy asoslariga ham katta e`tibor qaratildi. Buyuk tasviriy san`at ustalarining akademik qalamtasvir sohasida jahon san`atiga qo`shgan xissalari o`rganilmoqda. Albatta, oldin ham qalamtasvir fan sifatida o`qitilib kelingan, biroq unda fanning ilmiy asosi bo`lgan ma`ruzaga e`tibor berilmas edi. Qalamtasvir tarixi, ishlash texnologiyasi, tasvirlash vositalari chuqur, ilmiy asosda o`rganilmagan. Shu o`rinda professor B. Boymetovni haqli ravishda oliy o`quv yurtlarida akademik qalamtasvir asoslarini o`qitilishiga alohida e`tibor qaratgan birinchi ustozlardan ekanligini alohida ta`kidlab o`tishimiz lozim.

1.2. Uyg'onish davri rassomlari ijodida qalamtasvirni tutgan o`rni.

Italiya Uyg'onish davri haqida gap ketganda Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo Buanarotti, Rafael' Santi kabi buyuk san`at ustalari barchamizni ko`z o`ngimizda gavdalanadi. Ularning har biri o`ziga xos tarzda jahon san`ati tarixida o`chmas iz qoldirgan buyuk darg'alar sanaladi. Ularni qalamtasvir sohasida jahon san`atiga qo`shgan xissalari esa beqiyosdir.

Leonardo da Vinchi (1452-1529) – Italiyalik rassom, haykaltarosh, me'mor, Yuqori Uyg'onish davrining muxandis olimi.³

Yuqori Uyg'onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinchi san'atning ko'pgina turlarida o'z kuchini sinab ko'rdi, matematika, mexanika, fizika kabi fan sohalarida ham ilg'or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san'at hayotni bilish vositasi bo'ldi. Uning real voqelik asosida ishlagan suratlari keyinchalik ko'pgina ilmiy asarlari uchun illyustratsiya vazifasini o'tadi. Ijodkor xarakteriga xos bo'lgan bu xususiyat u yaratgan asarlarining o'ziga xos tomonlarini belgilaydi. Uning har bir asari hayotni o'rganish zamirida yuzaga kelgan, ijodkorning qalb harorati bilan isitilgan va hayotga bo'lgan munosabatini ifodalovchi asarlardir.

Rassomning "Gul ushlagan Madonna" (Benua Madonnasi) deb nomlangan ilk asarida shunday xislatlar mavjud. Rassom kompozitsiyada ortiqcha detal va lavhalardan voz kechib, tasvirlanuvchining xarakteristikasini kuchaytirishga, shakllarini umumlashtirishga intilgan. Kompozitsiyada yosh ona tizzasida o'tirgan go'dakning uni qo'lidagi gulga talpinayotgan payti tasvirlangan. Tepa tomondan tushayotgan yorug'lik tasvirning yanada yaqqol ko'rinishiga imkoniyatini yaratadi. Darchadan ko'rinayotgan osmon kompozitsiya muvozanatiga xizmat qilib, obrazni cheskiz tabiat bilan uzviy bog'lagan. Ona va bola boshi atrofiga ishlangan tilla gardishni hisobga olmaganda, hammasi oddiy florentsiyalikning uyidagi baxtni, ona va bola shodligidagi go'zallikni kuylovchi asar sifatida namoyon bo'ladi. Bu asar dunyo sirlarini bilishga qiziqqan, nur va go'zallikka intilgan insonni sevgan rassomning dunyoqarashini namoyon qiladi. Undagi plastika, anatomiya shu darajada mukammal ishlanganki, bevosita kelajak avlod rassomlari uchun ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish mumkin.

Rassom har bir asar ustida uzoq vaqt ishlar, ishlanadigan har bir obraz va detalning hayotiy bo'lishi uchun dastlab ularni naturaning o'zidan alohida qalamtasvirini ishlab, o'rganib, taxlil qilib so'ngra kompozitsiyaga ko'chirar edi. Bu esa o'z navbatida buyurtmalarning ba'zan vaqtida tugallanmasligiga olib kelar

³ Популярная художественная энциклопедия. –М; Книга I М; 1986. 398-бет.

va buyurtmachilar bilan nizo kelib chiqarishiga sabab bo`lardi. Bunga misol qilib, “Sehrgarlar ta`zimi”, “Avliyo Ieronim” kabi asarlarning yarimtugal holatda qolishini olishimiz mumkin. Leonardo Milanda yashagan kezlari, ya`ni 1482-1499 yillar davomida u o`zini olim, rassom, injener sifatida namoyon etish imkoniyatiga erishdi. Dastlab faoliyatini haykaltarosh sifatida boshlab, Milan hokimi Lodoviko Moro otasining yodgorlik modelini ishladi.

Me`mor sifatida ham Leonardo Milanda bir qator surat va loyihalar ishladi. “G`ordagi madonna” (1483-1494), “Sirli oqshom” (1495-1497) kabi mashhur asarlarini yaratdi. Milandagi “Sant Mariya della Gratsie” monastri uchun ishlagan mashhur “Sirli oqshom” devoriy surati Leonardo da Vinchini novator rassom darajasiga ko`taradi. U injildan olingan an`anaviy syujetni hayotiy, erkin obrazlarning xis-tuyg`u va ichki kechinmalarni ishonarli talqin etishi hisobiga ochib berdi.

Milan shahri frantsuz qo`shinlari tomonidan bosib olingan yili Leonardo da Vinchi Florentsiyaga qaytib ketadi. Bu erda “Angiari yonidagi jang” devoriy suratining kartonini yaratadi, shuningdek, o`zining eng mashhur asari “Mona Liza” (Jakonda)ni ishlaydi. “Mona Liza” portreti (1503) jahon rangtasvir san`atining eng mashxur asari hisoblanadi. Bu portret bilan Evropa san`atida chuqur psixologik portret san`ati boshlanadi.

Asarda xotirjam, o`z suhbatdoshiga nisbatan samimiy va mehr ko`zi bilan boqib turgan florentsiyalik go`zal ayol tasvirlangan. Uning ortida esa murakkab tabiat ko`rinishi. Shu tabiatning ajralmas qismi bo`lgan ayol u bilan uzviy bog`liq holda ifodalangan. Sochlari, kiyimlaridagi taxlam va jimjimalar go`yo tabiat ritmini takrorlayotgandek tuyuladi. Tabiat fonida mayin va nozik qilib tasvirlangan ayol qiyofasi, uning chiroyli va nozik qo`llari yanada latofatli, go`zal bo`lib tuyuladi. Bu latofat va go`zallik uning nigohidagi samimiylik va mehribonlik bilan uyg`unlashib, ideal go`zal inson qiyofasini gavdalantiradi.

Leonardo da Vinchi umrining oxirida ilmiy kuzatish va ularni tizimlashtirish ustida ish olib boradi. Rangtasvir haqida risola yozishga kirishadi. Bu risola tugallanmagan bo`lsa ham, to`plangan va saqlanib qolgan qismlari uni realistik

san`atning etuk nazariyotchisi sifatida namoyon qiladi. Uning chiziq, rang perspektivasi, rangshunoslik haqida yozib qoldirgan fikrlari hanuzgacha o`z qiymatini yo`qotmagan.

Qalamtasvir sohasidagi ijod namunalari san`at va madaniyatga ixtisoslashgan zamonaviy ta`lim muassasalarida namuna sifatida foydalanib kelinmoqda.

Mikelanjelo Buonarroti (to`liq ismi Mikelanjelo di Lodoviko di Lionardo di Buonarroto Simoni) (1475-1564) – Italiyalik haykaltarosh, rassom, me`mor va YUqori Uyg`onish davri kuychisi⁴.

Uyg`onish davri kishilarining komil inson to`g`risidagi tushunchalari yuqori Uyg`onish davrining buyuk ijodkori Mikelanjelo ijodida o`zining to`liq va atroflicha o`z ifodasini topdi. Bu san`atkor qahramonlari insondagi butun ijobiy xislatlarni o`z fazilatiga singdirib yuborgan kishilardir. U san`atning ko`p turlarida, jumladan, haykaltaroshlik, me`morlik, rassomlikda ijod qildi. Lekin, u qaysi san`at turida ijod qilmasin, shakliy jihatdan tugal, g`oyaviy jihatdan chuqur, badiiy jihatdan go`zal asarlar yarata oldi.

Mikelanjelo 70 yillik ijodiy faoliyati davomida san`at maydonida davr ruxi bilan hamnafas asarlar yaratdi. SHu boisdan ham u asarlarida davrning yuksak g`oyalarini ifodalash bilan bir qatorda, bu g`oyalarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham juda nozik xis etgan holda ko`rsata oldi. Uyg`onish davri tushkunligini birinchi bo`lib, achinish va iztirob bilan e`tirof etdi.

Mikelanjelo 1475 yili 6 martda, Florentsiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi. Otasining qarshiligiga qaramay, o`zini san`atga bag`ishlashga qaror qiladi. 13 yoshida u florentsiyalik Domeniko Girlandayo ustaxonasiga o`qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak iste`dodi Florentsiya hokimi Lorentso Medichini o`ziga tortdi. Uni medichilar saroyi qoshida tashkil qilingan badiiy maktab talabalari safiga qabul qilib olishadi. Bu erda Mikelanjelo Donatello shogirdlaridan biri qo`lida ikki yil o`z bilim va mahoratini oshirdi.

⁴ Популярная художественная энциклопедия. – М-Я; Книга II М; 1986. 8-бет

Saroyda yosh rassom antik dunyo san`ati namunalari bilan tanishdi, ulardan ko`chirmalar ishladi. Protorenessans va ilk Uyg`onish davri san`atkorlari bilan, ayniqsa, qahramonlik va tantanavorlik ruxi bilan sug`orilgan Jotto va Mazachcho devoriy suratlari, YAkopo della Kverchi haykallari bilan qiziqdi va ularni o`rgandi. Saroyda bo`lib turadigan mashxur shoir, rassom, haykaltaroshlar, faylasuf va me`morlar yig`inlaridan voqif bo`lgan yosh san`atkorning dunyoqarashi tez rivojlandi.

“Zina oldidagi madonna” (1492), “Kentavrlar janggi” (1494) san`atkorning marmardan ishlangan birinchi mustaqil asarlari bo`ldi. 90-yillarning boshlarida yaratilgan bu bo`rtma tasvir (rel`yef) o`zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, tasvirlangan obrazning to`laqonligi, san`atkor tanlagan badiiy shakllarning rang-barangligi, ifodaliligi va kompozitsiyasining dinamikasi bilan kishida katta taassurot qoldiradi. Bu asarlarda san`atkor ijodiga antik san`atning ta`siri kuchli bo`lganligi seziladi. Bu ta`sir, ayniqsa, uning Italiya shaharlari Bolon`ya va Rim bo`ylab qilgan sayohati davrida yaratgan “Vakx haykali” (1498)da ham juda yaxshi seziladi.

Rimda yaratilgan ”Iso (a.s.)ga aza tutish” (P`eta) 1498-1501) haykali Mikelanjeloga haqiqiy shuhrat keltirdi. Iso (a.s.)ga motam tutish mavzusiga bag`ishlangan bu fojiali dramatik kompozitsiyani san`atkor chuqur psixologik planda hal etib, uni haqiqiy insonning his-tuyg`u va kechinmalari bilan to`ldirdi. Onaning cheksiz iztirob va qayg`usini uning quyi egilgan boshi, chap qo`lining ixtiyorsiz harakati hamda xomush va mungli termulishi orqali ochishga muyassar bo`lgan. Mikelanjelo Isoning onasini yosh qilib tasvirlaydi. Bu bilan rassom fojiali mavzuni optimistik ruhda tasvirlashga, obrazga ruxiy poklik va go`zallik kiritishga, ilg`or g`oyalarning g`alaba qilishiga ishonch ruxi bilan qarashga harakat qilganligi ko`rinadi.

Mikelanjelo 1501 yili Florentsiyaga qaytadi. Shu yerda shahar kengashining buyurtmasi bilan yaxlit marmardan o`zining mashhur “Dovud” (a.s.) haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat, 1504 yili bu haykal Florentsiyaning bosh maydoniga o`rnatiladi.

Zamondoshlari bu haykalni yuqori baholadilar va uni Florentsiya respublikasining himoyachisi, erkinlik va ozodlik ramzi sifatida qabul qildilar. Bu obrazga o`z vaqtida Donatello, Verokkiolar ham murojaat qilishgan edi. Lekin, Mikelanjelo o`z qahramonining g`alabadan keyingi paytini emas, balki jangga tayyor turgan vaqtidagi holatini tasvirlash orqali uning xarakterini yanada kuchaytirdi. San`atkor san`at tarixida birinchi bo`lib, butun kuchi bilan dushman hamlasiga qaqshatqich zarba berishga tayyor turgan jasoratli, qudratli inson obrazini yaratish orqali o`z baxt-saodati uchun kurasha oladigan, o`z kuch va imkoniyatlarini to`g`ri baholay oladigan inson obrazini yaratishga muvaffaq bo`ldi.

Hozirda ushbu haykalning to`liq o`zi va uning qo`l, oyoq va yuz qismlari dunyoning barcha mamlakatlaridagi san`atga ixtisoslashgan o`quv yurtlarida namuna sifatida foydalanib kelinmoqda. Chunki, undagi barcha detallar shu darajada mukammal ishlanganki, undan nafaqat qalamtasvir darslarida, balki tibbiyot muassasalarining anatomiya darslarida ham foydalanish mumkin. Zamonaviy mexanik uskunalar yordamida ham uni tuzilishidan kamchilik topishning sira ham iloji yo`q deb hisoblaymiz. Rassomning shu birgina asarining o`ziyoq uni qalamtasvir sohasida jahon san`atiga qo`shgan hisasini naqadar ulug` ekanligidan dalolat berib turadi.

Mikelanjelo o`zini haykaltarosh deb hisoblar edi. Lekin, u rangtasvir san`atida ham u o`z zamondoshlaridan o`zib ketadi va uning haqiqiy nodir namunalarini yaratib qoldirdi. Bu san`atda ham rassomning bosh qahramoni inson obrazi bo`lgan. Uning jismoniy qudrati, aqliy barkamolligi va ma`naviy go`zalligi san`atkor ijodining bosh yo`nalishini belgilaydi. Bu g`oyani ifodalashda esa san`atkor o`ziga xos mahobatli badiiy ifoda vositasidan juda o`rinli foydalanadi. 1503-1504 yillarda yaratgan yagona dastgoh asari bo`lgan “Muqaddas oila” (Donni madonnasi) kompozitsiyasida ishlatilgan yaxlit shakllar, obrazlarning haykaltarosh asari singari hajmli talqin etilishi uning mazmunini yanada chuqurligi va ta`sirchanligining ortishida katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bibi Maryam (r.a.), YUsuf (a.s.) va Iso (a.s.) obrazlari ulug` siymolar ekangili juda yaxshi ochib berilgan.

1508 yili Yuliy II Mikelanjeloga Vatikandagi Sikst kapellasining shifti va devorlarini suratlar bilan bezab berishni taklif qiladi. Mikelanjelo bu taklifni istaristamas qabul qiladi. Bu buyurtma ustida san`atkor to`rt yil tinimsiz mehnat qiladi (1508-1512). Dastlab shu yuzalarga mos tushadigan kompozitsiyalar ustida fikr yuritadi, devoriy surat texnologiyasi bilan tanishadi, “al’-fresko”ning murakkab texnikasini o`rganadi, juda katta hajmda qalamtasvirlar hamda kartonlar ishlaydi. SHundan so`ng devor va shift yuzalariga rasm chizishga kirishadi. O`z qo`li bilan 600 kv m ga yaqin yuzani suratlar bilan bezab chiqadi. Turli murakkab holatda turgan odamlar gavdasi tasviri shu yuzaga ishlangan suratlar kompozitsiyasini tashkil etdi. Mikelanjelo surat kompozitsiyasish xonaning ichki xarakteri, darcha, eshik hamda xonadagi boshqa me`morlik detallari va hajmi hisobga olgan holda tuzadi. Xonaning asosiy devorlariga dunyoning yaratilishi, odamning paydo bo`lishini tasvirlovchi voqealar ishlangan. Shiftga ishlangan suratlarining mazmuni eshik tomonidan boshlanib, mehrob tomon rivojlanib boradi. Unda insonning ma`naviy barkamollikka erishish bosqichlari ifodalandi. Kapelladagi suratlarining umumiy g`oyasi dinni targ`ib etish emas, balki inson kuch-qudratini, aql-zakovatini ulug`lash, uning jismoniy go`zalligini kuylashga qaratilgan. Hayot tantanasini ulug`lovchi bu asarda mungli ohanglar ham seziladi, ayrim obrazlarda iztirob chekish, dunyoga ishonchsizlik bilan qarash, tushkunlik kayfiyatlari namoyon bo`la boshlaydi. Bu, albatta, shu davr Italiya hayotida sodir bo`layotgan o`zgarishlar, eng avvalo, ilg`or g`oyalarning inqirozi bilan bog`liqdir.

Mikelanjeloning yirik me`morlik asarlaridan biri Florentsiyadagi San Lorentso cherkoviga qo`shimcha qilib qurilgan medichilar kapellasi, unga ishlangan qabr toshi va haykallari hisoblanadi. Kapellaning uncha katta bo`lmagan, kvadrat shaklidagi xonasining oq devorlari to`q kulrang marmardan ishlangan pilyastrlar bilan ajratilgan. Unda Urbinskiy va Juliano Nemurskiylarning sag`analari joylashgan. Ularning haykallari esa shu sag`analarning tepa qismiga ishlangan tokchalarga qo`yilgan. Bu tokchalar oldida chiqib turgan sarkofaglar (qadimgi tosh tobut)ning tepa tomonlariga zabardast yalang`och erkak va ayol haykallari, tong, kun, oqshom va tun allegoriyasi ishlangan. Ular sarkofagning

yarim aylana shaklidagi tepa qismiga joylashtirilgan bo`lib, go`yo shu qiyalikdan surilib, pastga tushib ketayotganga o`xshaydi. Haykaltarosh kompozitsiyani shunday echish orqali bezovtalik, notinchlik kayfiyatini ko`rsatadi. Vaqtning beomon va o`tkinchi ekanligini va inson hayotining abadiy emasligini ta`kidlaydi.

1534 yili Mikelanjelo butunlay Rimga ko`chib keladi. Papa Pavel III buyurtmasi sikst kapellasining mehrob devoriga “Qiyomat qoyim” (1534-1514) mavzusida rasm ishlaydi. Kompozitsiya markazida Iso (a.s.)ni o`zining gunohkor ummatlarini so`roq qilayotgani aksi tasvirlangan.

Mikelanjelo ijodi, uning akademik qalamtasvir sohasida jahon san`atiga qo`shgan hissasi o`z davrida va o`zidan keyingi davr san`atkorlari, rassom, me`mor, haykaltaroshlariga kuchli ta`sir qilib, ularning ilhom manbaiga aylandi. Hozirda ham uni merosi doimiy ravishda o`rganib kelinmoqda.

Rafael` Santi (Cansio) – asli Rafaello Santi (Sanrio) (1483-1520) – Italiyalik mashhur rangtasvirchi rassom va me`mor.⁵ Uyg`onish davrining yuksak ilg`or g`oyalari shu davrning titanlaridan biri hisoblangan Rafael` Santi ijodida o`zining tugal va poetik talqinini topdi. Leonardoning kichik zamondoshi Rafael` tasviriy san`atda o`zigacha bo`lgan yutuqlarni o`zlashtirgani holda, har tomonlama mukammal kamol topgan go`zal inson obrazini yaratadi, mo``tabar ona siymosi orqali davrning yuksak g`oyalarini ifodaladi.

Zamonasining oddiy rassomi bo`lgan Jovanni Santining farzandi Rafael` tasviriy san`at asoslarini dastlab o`z otasidan oladi, so`ngra mahalliy urbinalik rassom Timoteo Viti ustaxonasida davom ettiradi. 1500 yili esa Perudjino (P`etro Vanuchchi) ustaxonasida o`z bilimini yanada oshiradi. Perudjino ijodi Rafaelga sezilarli darajada ta`sir o`tkazadi. Uning obrazlarni fazoda erkin va tabiiy holda joylashtirishi va tasvirlashga intilishi, muhit bilan uyg`unlikda ko`rsatish kabi fazilatlari Rafael` ijodida sezilarli iz qoldirdi.

O`n yetti yoshida yaratgan ilk asari – “Konestabel madonnasi” (1500) asari rassomni ijodiy kamolotga erishgan, aniq insoniy fazilatga ega bo`lgan san`atkor sifatida namoyon etadi. Bu asarda qo`lidagi kitobga talpinayotgan go`dakka mehr

⁵ Популярная художественная энциклопедия. – М-Я; Книга II М; 1986. 156-бет

ko`zlari bilan boqib turgan yosh ona tasvirlangan. Ortida sokin tabiat, uning qo`ynida o`z yumushi bilan band bo`lgan odamlar ko`rinadi. Hammayoqda tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Rafael' bu asarida obrazlar harakatining tabiiy bo`lishiga erishgan holda, yosh onaga xos bo`lgan lirik kayfiyat hamda voqelikdan zavqlanish holatini ustalik bilan ko`rsata olgan. CHiziq go`zalligi, nafis ranglar uyg'unligi esa shu holatni yanada chuqurlashtirib, uning emotsional tomonini orttirishga xizmat qiladi.

Perudjiyada 4 yilga yaqin bo`lganidan so`ng Rafael' yana Urbinoga qaytadi va bir ozdan so`ng Florentsiyaga keladi. Bu erda o`zining mashhur bo`lishiga sabab bo`lgan qator madonnalar obrazini yaratdi va tezda yuqori Uyg'onish davrining etuk ijodkorlaridan biriga aylandi.

XVI asr boshlariga kelib, Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylanadi. Uning mavqeini yanada orttirish maqsadida Rim papalari etuk san`atkorlarni shaharga taklif eta boshladilar. SHu davrda Mikelanjelo, Bramantelar qatori Rafael' Santi ham Rim papalarining diqqatini o`ziga tortdi va 1508 yili ularning taklifiga binoan Rimga keladi. SHu paytdan Rafael' ijodining eng gullagan davri boshlanadi va u o`zining eng etuk asarlarini yaratadi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash topshiriladi. Rafael' bu suratlar ustida 1511 yilgacha mehnat qilib, uni muvaffaqiyatli bajaradi. Bundan xursand bo`lgan papalar unga yana xonalarni bezash va ularga devoriy suratlar ishlashni davom ettirishni topshirishadi. Bu ish ustida rassom 1517 yilgacha ishlab, o`z iste`dodini to`liq namoyon qildi. U ajoyib dekorator, kompozitsiya ustasi sifatida o`zini ko`rsatdi. Bu devoriy suratlar mavzusi ko`p hollarda qadimgi davr voqealari, afsonalariga bag'ishlanadi.

Uyg'onish davrining ilg'or g'oyalari, ularning antik dunyoga bo`lgan zo`r e`tiqodlari "Afina maktabi" devoriy suratida o`z ifodasini topadi. Surat shu davr kishilarining yorqin kelajak haqidagi o`y va tasavvurlarini namoyon qiladi. Markazda idealistik va materialistik falsafaning otalari hisoblangan Platon va Aristotel' tasvirlangan. Past tomonda, chapdagi zina oldida shogirdlari qurshovida Pifagor, o`ng tomonda esa evklid va teparoqda Rafael' o`zini tasvirlaydi.

Barchalarining hatti-harakatida yuksak ko`tarinkilik va yaratuvchilik kayfiyati hukm suradi.

Rafael' ishlagan devoriy suratlar ichida "Iliodorning quvilishi" kompozitsiyasi ham mashhurdir. Bu suratda ibodatxona boyliklarini o`g`irlamoqchi bo`lgan suriyalik harbiy qo`mondonni g`oyibdan paydo bo`lgan otliq va farishtalar jazolab, haydayotgan payti tasvirlangan. Bu syujetning tanlanishi tasodifiy emas, albatta. Italiyada og`ir kunlar boshlangan bir vaqtda cherkov o`zining boyliklarini qo`lda qurolga qurol olib himoya qilishga majbur bo`ladi. Bu tasvir ham cherkov boyliklariga ko`z olaytirmaslikka chaqiruvchi asar sifatida yaratilgan bo`lib, kimda-kim cherkov boyliklariga ko`z olaytirsam, qattiq jazolanishini eslatib turishga mo`ljallangan edi.

Rafael' devoriy suratlar ishlashdan tashqari, mahobatli-dekorativ rasmlar ustida ham ijod qiladi, gilamlar uchun kartonlar ishlaydi. Bularni ichida apostol Pyotr tarixiga bag`ishlab ishlangan suratlar juda ham mashhur hisoblanadi.

Bulardan tashqari, Rafael' Rimda bo`lgan kezlarida o`zining eng mashhur asari "Sikstin madonnasi" (1515-1519) asarini yaratadi. Bu surat avliyo Sikst cherkovi uchun mo`ljallangan bo`lib, asar uchun afsonaviy voqea asos bo`lgan. Afsonalarga ko`ra, Bibi Maryam o`z farzandini dushmanga topshirib, erdagi odamlarni azob-uqubatdan qutqarishi mumkin bo`lgan. Rassom kompozitsiyasida Bibi Maryamning o`z farzandini dushman qo`liga topshirish uchun ketayotgan payti tasvirlangan. Go`yo parda ochilib, bola ko`targan Bibi Maryamning oyoqlarini bulutlarga qo`yib, pastga tushib kelayotgani, pastroqda, uning ikki tomonida avliyolar Sikst va Varvara, pastroqda esa xayol surib, o`ychan holda cheksizlikka boqib turgan farishtalar aks ettirilgan. Bu asarda rassom o`z manfaatini xalq manfaatndan ustun qo`yadigan komil inson siyomosini yaratib, o`z davri kishilarining olijanoblik g`oyalarini shoirona talqin etadi. Asarning yuksak mahorat bilan ishlanishi, rang uyg`unligidagi tugallik uning xis-xayajon kuchini yanada oshiradi.

Rafazl' ijodining so`nggi yillari rang-barang bo`ladi va u rassomlik bilan birga me`mor sifatida ham ijod qiladi. U Bramante vafotidan keyin Avliyo Pyotr

soborini qurish ishiga rahbarlik qiladi, villa va cherkovlar uchun karton va chizmalar ishlaydi, qalamda ko`plab suratlar ishlaydi. Rafael` juda ham qisqa umr ko`radi va 37 yoshida vafot etdi. Qisqa umr ko`rishiga qaramay o`zidan juda ham katta meros qoldirishga ulguradi. U boshlagan ishlarni shogirdlari davom ettiradi. Biroq, ular o`z asarlarida ustozini ijodiga xos bo`lgan chuqur g`oyaviy badiiy mazmunni ifodalay olmaydi.

Rafel` Santi qisqa va sermazmun hayoti davomida qalamtasvirga plastikani, chiziq go`zalligini bag`sh etgan rassom sifatida ham jahon san`atida o`chmas iz qoldirgan buyuk rassom hisoblanadi.

1.3. Peterburg Badiiy Akademiyasining qalamtasvir o`qitish rivojiga qo`shgan hissasi.

1758 yil I. I. Shuvalov tashabbusi bilan Rossiyada tashkil qilingan Peterburg Badiiy Akademiyasining jahon tasviriy san`ati rivojiga, jumladan qalamtasvir sohasiga qo`shgan hissasi katta bo`lgan. Ammo, uni tarixi va u erda faoliyat ko`rsatgan juda ko`plab rassom-pedagoglar haqida to`liq ilmiy ma`lumotlarga ega emasmiz.

1769 yildan boshlab Peterburg Badiiy Akademiyasida qalamtasvirning mohir ustasi va ajoyib pedagog A. P. Losenko faoliyat ko`rsatishni boshlaydi.⁶ U qisqa va sermazmun umri (1737-1773) davomida akademik qalamtasvir fanining rivojiga ulkan hissa qo`shgan XVIII asr rus rassom-pedagoglardan biri hisoblanadi.

1769 yildan boshlab Rossiya Badiiy Akademiyasida o`qituvchi sifatida faoliyatini boshlagan Anton Pavlovich qisqa muddat ichida, ya`ni oradan bir yil o`tib Akademik va katta professor lavozimiga ega bo`ladi, 1772 yili esa akademiya direktori etib tayinlanadi.

U o`zining asosiy diqqat-e`tiborini nafaqat amaliy mashg`ulotga balki qalamtasvir nazariyasiga ham qaratadi. Natijada uning yorqin pedagogik faoliyati tez orada ko`pchilikning e`tiborini tortadi. Losenkodan boshlab rus akademik maktabi o`zining o`ziga xos asosiy yo`nalishiga ega bo`ladi.

⁶ Н. Н. Ростовцев. История методов обучения рисованию. М.; 1982. 26-бет.

Losenko har bir tasvirni ishlashdan oldin uning ilmiy-nazariy asoslarini talabalarga tushuntirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi, bu narsa, avvalo, odam qomatini ishlashda o`z aksini topadi. Buning uchun u plastik anatomiyani chuqur o`rganib, odam tanasini o`ziga xos teng bo`laklarga bo`linish qonuniyatlariga oid sxema va tablitsalarni ishlab chiqib, o`quvchilariga ko`rsatishdan boshlaydi. Shu paytdan boshlab qalamtasvir o`qitish metodikasi anatomiya va odam tana nisbatlarini, perspektivani jiddiy o`rganishga asoslanishni boshlaydi. Rassom uchun kerakli bo`lgan bu nazariy bilimlarni Losenko o`zining yorqin pedagogik mahorati va katta ishonchi bilan o`quvchilariga o`rgatgan.

Losenkoning xizmatlari nafaqat Akademiyada qalamtasvir o`qitishni yaxshi yo`lga qo`yganligi, balki uni rivojlanishiga ham katta e`tibor berganligi bilan diqqatga sazovvar hisoblanadi. Ularni ichida quyidagilarni alohida ta`kidlab o`tish lozim:

1. Odam qomati nisbatlarini va akademik qomat nisbatlarini taxlil qilishni keng yo`lga qo`yadi. Bu ish uch bosqichdan iborat bo`lib, birinchi va ikkinchi bosqich erkak kishi qomatini bo`yiga va eniga tasvirlashga qaratilgan bo`lsa, uchinchi bosqich esa profil tasvir ishlashga bag`ishlangan. Odam tanasini matematik taxlilini Losenko qism va bo`laklarga bo`lish orqali amalga oshiradi. Biroq, matematik taxlil deganda naturani tsirkul va chizg`ich orqali o`lchab olishni emas, balki ko`z yordamida chamalash orqali amalga oshirishni tavsiya etadi.
2. Rassomlar uchun anatomiyadan o`quv qo`llanma yaratgan. Afsuski, nashr qilinmagan, ayrim tasvirlargina saqlanib qolgan xolos. Ammo, ulardan Rossiya o`quv yurtlarida hozirda ham foydalanib kelinadi.
3. Odam qomatini qanday qilib kichaytirish va kattalashtirish bo`yicha qo`llanma ham yaratadi. Ammo, bu qo`llanma ham chop qilinmagan, biroq uni YAstrelibov tomonidan ko`chirilgan nusxalari yaxshi saqlanib qolingan bo`lib, Rostovtsevning "Istoriya metodov obucheniya risovaniyu" (M, 1982, oliy o`quv yurti talabalari uchun o`quv qo`llanma) qo`llanmasida ilk bor nashr qilinadi.

4. Rassom asarlarining asl nusxalaridan tuzilgan al'bom – qo'llanma tayyorlaydi. Ushbu qo'llanma maxsus maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, u odam boshi va qomati qalamtasvirining asl nusxalari asosida tuzilgan. Losenko asl nusxalardan ko'chirma olishga oddiy bir mexanik holat deb emas, balki qalamtasvir ustasini, etuk rassomni tayyorlashda eng zarur bo'lgan qo'l va ko'z harakatining rivojlantiruvchi omili sifatida qaraydi.

Bu kabi o'quv qo'llanmalarga akademiya tarbiyalanuvchilari juda ham muhtoj edilar. Losenko qalamtasvirdan o'quv qo'llanmalar borasida rus Akademiyasi, balki o'sha davrda akademiylari eng yaxshisi hisoblangan frantsuz Akademiyasi ham qashshoqligini juda yaxshi tushunib etgan rassom-pedagoglardan edi.

XVIII asr oxiriga kelib Anton Pavlovich Losenko kabi fidoiy insonlarning say'i-harakati bilan Rossiyada qalamtasvir umumta'lim maktablari o'quv predmeti sifatida keng tarqaldi.

1804 yili maktablar nizomiga asosan Rossiyaning barcha u'ezd bilim yurtlari va gimnaziylarining o'quv predmetlari qatoriga qalamtasvir ham o'quv predmeti sifatida kiritiladi. Bu esa o'z navbatida maktablari uchun ko'plab qalamtasvir o'qituvchilari etishmasligi muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni bartaraf qilish maqsadida 1825 yili graf Stragonov tashabbusi bilan Moskva shahrida texnik qalamtasvir bilim yurti tashkil qilinadi. Bu bilim yurtida umumta'lim maktablari uchun qalamtasvir o'qituvchilarini tayyorlaydigan maxsus bo'lim ham faoliyat ko'rsatadi.

Umumta'lim maktablari uchun qalamtasvirga oid maxsus o'quv va uslubiy qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyoj ham qattiq sezilib qoladi. Bu davrgacha chop qilingan qo'llanmalar maxsus bilim yurtlari va ixtisoslashgan maktablarga mo'ljallangan bo'lib, umumta'lim maktablari uchun esa qalamtasvirga oid hech qanday o'quv adabiyoti yaratilmagan edi.

1834 yili harbiy-muxandis, taniqli rassom-pedagog A. P. Sapojnikov tamonidan "Qalamtasvir kursi" (Kurs risovaniya) nashr qilinadi. Bu umumta'lim

maktablari uchun rus rassomi muallifligida nashr qilingan qalamtasvirga oid ilk o`quv qo`llanma bo`ladi. Unda qalamtasvir o`qitishning yangi yo`nalishlari ko`rsatilgan bo`lib, qalamtasvir nafaqat maxsus bilim yurtlari, balki umumta`lim maktablari o`quv predmeti sifatida ham qaraladi.

Sapojnikov qalamtasvir o`qitish metodikasiga yangicha yondoshadi. U o`z oldiga bo`lajak qalamtasvir ustalarini amaliy ish jarayonida fikrlashga, taxlil, mushohada qilishga o`rgatish vazifasini qo`yadi. SHuning uchun ham u karton va simlardan turli xil modellarni ishlab chiqadi. Bunday modellar jumlasiga kvadrat va aylanani qurilishi va hajmini, perspektivani hamda yorug`-soya qonuniyatlarini o`rgatish uchun tayyorlagan modellari kiradi. Ular asosida esa SHEbuev bilan birgalikda anatomik mulyajlar modellarini ham tayyorlaydi.

Sapojnikov tomonidan taklif qilingan qalamtasvir o`qitish metodikasi o`quv-tarbiyaviy ishlarda tub burilish yasaydi. Uni qo`llanmasi nashrdan chiqquniga qadar barcha umumta`lim maktablarida qalamtasvir o`qitish Preysler kitobi asosida olib borilar va asosiy e`tibor asl nusxalardan ko`chirma olishga qaratilardi. Naturadan ishlashga deyarli ahamiyat berilmas, realistik rasm chizishning ba`zi bir qonuniyatlari haqida jiddiy fikr yuritish haqida esa xech kim o`ylab ham ko`rmagan edi.

Sapojnikov “ixtiyoriy bir buyum tasvirini chizishda o`quvchiga yordam berishning eng yaxshi vositasi”- deb o`qishni boshlarida mazkur buyumlarni soddalashtirish asosida tasvirlash uslubini tavsiya qilgan. Bunda o`quvchi buyumni tashkil qilgan geometrik asosni aniqlab olishi kerak bo`ladi, keyin esa tasvirlashga o`tishi mumkin deb hisoblaydi.

Sapojnikov o`qituvchining vazifasi “o`quvchi chizish jarayonida yo`l qo`ygan hatolarini to`g`rilab, chizib berish bilangina cheklab qolmasdan, balki og`zaki tarzda o`quvchining hatosini tushuntirishdan ham iborat”- deb hisoblaydi. Bunga erishish uchun esa u turli xil modellardan samarali foydalanadi. Uni modellari tasvir ko`rinishini ko`chirish uchun kerak bo`lmasdan, aksincha, naturanig tuzilishi qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qilgan. Modellar natura bilan yonma-yon qo`yilgan bo`lib, ularning vazifasi naturani o`ziga xos

konstruktiv tuzilishi qonuniyatlarini o`quvchilarga tushuntirishdan iborat edi. Misol uchun, Sapojnikov gipsdan yasalgan odam boshi tasvirini chizishda simdan yasalgan bosh ko`rinishidagi modeldan foydalanishni tavsiya qiladi: “Gips bosh turgan holatga mos ravishda qo`yilgan simdan yasalgan model bosh bo`laklarining perspektiv o`zgarishini tushintirishga xizmat qiladi.”⁷

Bu modelning maqsad va vazifasi haqida muallifning o`zi shunday deb yozadi: “Badiiy Akademiya imperatorligi kengashiga men tuzgan “Boshlang`ich rasm kursi”ning bir nusxasini, unga tegishli modellar solingan quti va simdan yasalgan bosh modelini yuborishga jazm qildim. Ularni o`z marhamatingiz doirasida qabul qilishingizni o`tinib so`rayman. Agar ushbu model Akademiyaning rasm chizish sinflarida foyda keltirsa men juda baxtli bo`lar edim. Agar bu modelni xuddi shu burilishda namuna xizmatini o`taydigan gips boshning oldiga qo`yib ishlansa, u o`zini tarkib toptirgan qismlarining perspektiv o`zgarishini anglab olishga yordam beradi.”⁸

Sapojnikov tomonidan tavsiya qilingan yangi uslub nafaqat umumta`lim maktablarida, balki tasviriy san`atga ixtisoslashgan maxsus o`quv yurtlarida ham keng ko`lamda qo`llanila boshlanadi. Yangi uslubning muvaffaqiyati shunda ediki, u har qanday buyumning murakkab tuzilishini ko`rgazmali qurol bo`lgan modellar yordamida oddiy va sodda qilib ochib berar edi.

Barcha mutaxassis va tanqidchilar ham bir ovozdan Sapojnikovning uslubiga yuqori baho berishadi. Biroq, o`sha davrda chop qilingan uslubiy qo`llanmalarda uni nomi deyarli tilga olinmagan deb taxlil qiladi Rostovtsev. Haqiqatdan ham Rostovtsevgacha bo`lgan ko`plab uslubiy qo`llanmalarda aka-uka Dyupyui, Gal`yarilarning uslublari “yangi va juda ham yaxshi o`qitish uslubi” - deb maqtab yozilgan, biroq, Sapojnikov uslubi haqida esa bir og`iz ham so`z yuritilmagan. Shunga qaramasdan Sapojnikovning uslubi va modellari Dyupyui hamda Gal`yarilarning uslubi va modellari bilan umumiy o`xshash tomonlari ko`p bo`lgan.

⁷ Н. Н. Ростовцев. История методов обучения рисованию. М.; 1982. 60-бет.

⁸ Ботир Бойметов. Портрет қаламтасвири. Т.; 2001. 19-20-бб.

Shu o`rinda Sapojnikovning uslubi - 1834 yilda, Dyupyui -1842 yilda, Gal`yari – 1844 yilda chop qilinganligini keltirib o`tishini maqsadga muvofiq deb topdik. Bundan Sapojnikov ulardan oldin o`z uslubini nashrdan chiqarganligini ko`rishimiz mumkin. Qolaversa, ular modellardan natura sifatida foydalangan bo`lsalar, Sapojnikov modellari esa buyum hajmining tuzilish qonuniyatlarini ochib berishga, perspektiva va yorug`-soya qonuniyatlarini o`rganishga xizmat qilgan. Xulosa qilib, Sapojnikov uslubi Dyupyui va Gal`yarilarning uslubidan oldin yaratilgan va samarali uslub bo`lgan deyishimiz mumkin.

XX asr rus rassom-pedagoglari tomonidan uning uslubi o`rganib, ilmiy taxlil qilib chiqildi va keng ko`lamda qo`llanildi. Ayniqsa, N. N. Rostovtsevning pedagogika institutlarining “Chizmachilik, tasviriy san`at va mehnat” mutaxassisligi uchun o`quv qo`llanma sifatida chop qilingan “Istoriya metodov obucheniya risovaniyu” kitobida XIX asrning birinchi yarim yilligi bo`limida Sapojnikov uslubiga alohida e`tibor qaratiladi va uning afzallik tomonlari ochib beriladi.

XXI asr boshlarida rassom-pedagog Botir Boymetov tomonida “Portret qalamtasviri” o`quv qo`llanmasida Sapojnikov tomonidan ishlab chiqilgan uslub ilk marotaba o`zbek tilida batafsil bayon qilindi va uning qalamtasvir sohasiga qo`shgan o`ziga xos xissasi e`tirof etiladi.

A. P. Sapojnikovning qalamtasvir o`qitish uslubining ijobiy tomonlari hozirga qadar ham o`zining qiymatini yo`qotgan emas, undan oqilona foydalanish esa qalamtasvir mashg`ulotlari samaradorligini oshiradi.

Ikki rassom-pedagoglarni qalamtasvir o`qitishga qo`shgan hissasini o`rganish orqali Peterburg Badiiy Akademiyasida qalamtasvirga berilgan e`tiborni bilib olishimiz mumkin.

I-bob. Zamonaviy ta`lim tizimida qalamtasvir mashg`ulotlarida akademik maktabning ahamiyati.

2.1. Zamonaviy ta`limda qalamtasvir o`quv predmetiga qo`yilgan talablar.

Zamonaviy ta`limda qalamtasvir o`quv predmeti bo`yicha maxsus namunaviy fan dasturi ishlab chiqiladi. Ushbu dastur asosida o`qitilishi esa akademik maktab talablarini bajarilishini ta`minlaydi. Unda tasviriy san`atning asosi bo`lgan qalamtasvirning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, tasviriy san`at qonun-qoidalari, bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilarini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda qalamtasvirning ahamiyati batafsil ochib beriladi.

Qalamtasvir-barcha tasviriy san`at turlarining; rangtasvir, dekorativ amaliy san`at, grafika, xaykaltaroshlikning asosi sifatida bo`lajak pedagog rassomlarga borliqni ko`rib-kuzatib to`g`ri tasvirlash, borlikni idrok etish, qo`l, ong va sezgi organlarini shakllantirish hamda bo`lajak rassom-pedagoglarni tasviriy san`at asoslariga o`g`atishni maqsad qilib qo`yadi.

Qalamtasvir fanining vazifalari boshqa kasbiy fanlari qatorida bo`lajak rassom-o`qituvchilarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u talabalarga amaliy mashg`ulotlar orqali olib boriladi. SHuni alohida ta`kidlash kerakki, amaliy mashg`ulotlar jarayonida nazariy bilimlarni ham berib borish bo`lajak rassom-pedagoglarning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o`rin tutadi.

Qalamtasvir mashg`ulotlarini o`qitish jarayonida tasviriy san`at asoslari, kompozitsiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluet, konstruktsiya, chizgilar, nisbatlar, materiallarning xususiyatlari, yorug`-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanish kabi qator qonuniyatlarni bilish talab qilinadi.

Talaba tasviriy san`at tarixi va nazariyasi, kompozitsiya qonuniyatlari va plastik anatomiya, portret xarakteristikasi va psixologik echim, o`quv va akademik qalamtasvir ishlash metodlari va metodologik asoslari, qalamtasvir texnologiyasi, oddiy geometrik shaklardan boshlab, insonning to`liq qomatini tasvirlay olish, qalamtasvir kompozitsiyasi, tasviriy san`at asarlarini yaratishda qalamtasvirning

ahamiyati, qalam va turli tasvirlash vositalarida kompozitsiyalar tuzish malakalariga ega bo`lishi kerak.

Amaliy mashg`ulotlarni tashkil etishda quyidagi tasviriy san`at ashyolari bo`lishi zarur:

- turli geometrik shakllar, gips rozetkalar, turli xil uy-ro`zg`or buyumlari, antik davri gips bosh numunalari, antik davri gips haykallari, Dovud (a.s.) bosh haykali bo`laklari, anatomik haykal namunalari, plastik anatomiyaga va tasvirlash qonun-qoidalarini namoyish etuvchi plakatlar, o`zbek va jahon san`ati namoyondalarining grafik asarlaridan namunalar, inson skeleti va bosh suyagining namunalari, bakalavr va magistrantlarining bitiruv ishlaridan namunalar. SHuningdek, inson qiyofasini tasvirlash uchun (portret, yarim gavda, gavda, yarim yalang`och va yalang`och) qiyofachilar taklif etiladi. O`quv rejadagi vazifada ko`rsatilgan mashg`ulotning sodda yoki murakkabligi hamda unga ajratilgan soatlaridan kelib chiqqan xolda ularga soatbay ish xaqi to`lanadi. Ushbu o`quv predmetidan amaliy mashg`ulotlarni tashkil etishda talaba qalamtasvirning kelib chiqish tarixini, o`quv qalamtasviri mashg`ulotlari va ularning talabalarni realistik tasvirlashga o`rgatishdagi ahamiyatini, tasvirlashning asosiy qonun qoidalarini bilishi talab qilinadi.

Amaliy mashg`ulotlarda grafik ishlar mazmuni quyidagi tartibda bo`ladi;

- Uy-ro`zg`or buyumlardan tashkil topgan natyurmortlar, yakka buyumlar qalamtasviri.
- Meva va sabzavotlarning yakka tasvirlari, sabzavot va mevalardan tashkil topgan natyurmortlar.
- Uy-ro`zg`or buyumlari va mevalardan tashkil topgan sodda natyurmort bajarish.
- Daraxt shoxlari, novdalari, gul va yaproqlari, toshlarning ko`rinishi va manzara bo`laklarini tasvirlash.
- Odamning xar-xil holatda turganini tezkor qalamtasvirini bajarish mashqlari, qoramalar.
- Odam gavda bo`laklarini qalamtasviri.

- Odam boshini turli rakurslarda yoritilgan holdagi qalamtasviri.

Talabalar ushbu vazifalarni faqatgina auditoriya sharoitida o`qituvchi rahbarligida bajarish bilangina cheklanib qolmasliklari kerak. Har bir talaba darsdan bo`sh vaqtda muntazam ravishda qo`liga qalam olmas ekan undan xech qachon rassom yoki rassom-pedagog chiqmaydi. SHuning uchun ham zamonaviy ta`lim tizimida mustaqil ta`limga alohida e`tibor beriladi. Qalamtasvir o`quv predmetidan talaba mustaqil ishini tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar bo`yicha fan boblari va mavzularini o`rganishi;
- tarqatma materiallar bo`yicha ma`ruzalar qismini o`rganishi;
- maxsus adabiyotlar bo`yicha fanlar bo`limlari yoki mavzulari ustida ishlashi;
- Talabaning o`quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq bo`lgan fan bo`limlari va mavzularini chuqur o`rganishi;
- Faol va muammoli o`qitish uslubidan foydalaniladigan o`quv mashg`ulotlarini kuzatishi;
- Masofaviy (distantion) ta`lim asosida bilim olishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalarga quyidagi tartibda mustaqil ishlarning mavzularini tavsiya qilinadi:

- Usta rassom va pedagoglarning qalamtasvir va grafika bo`yicha yaratgan asarlarini taxlil qilish;
- Tasviriy san`atning asosiy qonun - qoidalarini namoyish etuvchi plakatlarni o`rganish;
- Tasviriy san`atga oid maxsus adabiyotlarni mutoola qilish;
- Tabiat qo`ynida chiziqli va havo perspektivasini qo`llagan holda qalamchizgi va qoramalar ishlash;
- Rassomlar ustaxonalari, ko`rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish, hamda ulardan numunalar olish;
- Buyumlarni chiziqli konstruktiv qurilishini tasvirlashga oid mashqlar bajarish (geometrik shakllar misolida);

- Bosh suyagi yuz qismi bo`laklarining o`ziga hosligi va tuzilishiga oid tasvirlar ishlash;
- Konstruktiv anatomik tuzilish asoslarini hisobga olgan holda ayol qiyofachining yuz tuzilishining xarakterli xususiyatlarini boshning elka bilan birlashuvini aniqlab tasvirlash (bo`yin va elka muskullari bog`lanishini ifoda etgan xolda);
- Ushbu vazifani erkak qiyofachi tasvirini ishlash orqali bajarish;
- Yalang`och gavdaga qarab turli nuqtalardan tez qalamchizgilar bajarish, inson tana bo`laklarining konstruktiv - anatomik jihatdan tuzilishini o`rganish;
- Uy-hayvonlari va parandalarni qoralama va xomaki nusxalarini ishlash.

2.2. Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari.

Qalamtasvir ham boshqa barcha o`quv predmetlari qatorida o`zining maxsus qonun-qoidalariga ega bo`lib, ushbu qonun-qoidalari rassomlar, rassom-pedagoglarning uzoq yillik tajribalar asosida takolimlashgan va maxsus akademik maktablarda joriy qilingan. Hozirga kelib esa san`atga ixtisoslashgan litsey va kollejlarda, oliy o`quv yurtlarida qalamtasvirning qonuniyatlari o`qitilib kelinmoqda. Jumladan, bunga buyumlarning konstruktiv tuzilishi, o`zaro nisbatlari, perspektiva qonuni, yorug`-soya kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda har qanday rassom bevosita perspektiva qonuniga murojaat qiladi. Chunki, “Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo`lmasin, perspektiv qonun va qoidalarga bo`ysunadi”. Perspektiva qonunlarni mukammal o`rganilgandagina har qanday buyumning ko`rinar va ko`rinmas tomonlarini to`g`ri tasvirlash mumkin bo`ladi.

Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo`lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O`z navbatida perspektiv qonuni haqqoniy tasvirlash «alifbo» laridan bo`lgan «sura`at tekisligi», «buyum tekisligi», «ko`rish maydoni», «ko`rish nuqtasi», «ufq chizig`i» kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog`liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo`shliqqa aytiladi. Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug`lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga u yoki bu buyumning shakli ko`rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o`tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o`rtasidagi vosita bo`lib xizmat qiladi.

Buyum tekisligi deb esa tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, er va shu kabi boshqa chizish uchun bajariladigan moslamalar bo`lishi mumkin.

Ko`rish maydoni bu chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko`rish vaqtida qamrab olishdir. Rassomdan tasvirlanayotgan ob`ekt qancha uzoqlashib borgani sari uning maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob`ektning hamma qismlarini aniq ko`rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Lekin, ob`ektdan juda katta masofada turib ham, undagi hamma bo`laklarni va hajmlarni to`laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan ob`ektga yaqin masofada turib ham, ushbu ob`ektdagi hamma qismlarni ko`z bilan ilg`ab olish mashkul. SHuning uchun har qanday tasvirni bajarayotganda chamalash orqali masofani to`g`ri tanlay olish, ko`rish maydonini to`g`ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko`p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining 3 hissa ko`paytirilganiga teng masofada turib tasvirleydilar. Masalan, inson qomatini to`laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan 5-5,5 metrlar masofada turishi kerak. Agar unga yaqin turib qolsa, bosh yoki oyoqqa alohida –alohida qarashiga to`g`ri keladi, natijada tasvirni umumiy ko`rish buziladi. Undan ortiqcha uzoqlashganda esa ba`zi bir qismlar aniq ko`rinmay qoladi. Bu ham tasvirni haqqoniy tasvirlash imkoniyatini yo`qotilishiga olib keladi.

Ufq chizig`i deb, ko`zimi balandligida o`tadigan nurga aytiladi. Buni aniqlash uchun qog`ozni olib uni gorizontol holatda ko`zimiz darajasigacha ko`tarib ufq

chizig'ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko`rinishi mumkin

- Ufq chizig'idan yuqorida.
- Ufq chizig'idan pastda.
- Ufq chizig'i balandligi darajasida.

Ufq chizig'i har doim ko`zimiz nuri balandligidan o`tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko`tariladi, pastga tushsak ufq chizig'i ham pastda kuzatiladi. Ko`zimiz nuri balandligidan pastda joylashgan buyumlarni ustki qismi bizga ko`rinadi, aksincha ufq chizig'idan yuqorida joydashgan buyumlarning esa ostini ko`ramiz.

Fazoviy perspektiva deb buyumlarning fazo (bo`shliq) ta'sirida o`zgarib (qisqarib) ko`rinishiga aytiladi. Fazo – tiniq muhitdir. Lekin, uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o`zgarib turishi ham mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o`zgarishi, havodagi chang-to`zonning ta'siri va shu kabi boshqa holatlar bunga misol bo`laoladi. SHuning uchun tasvirlanayotgan ob'ektning fazo bo`shlig'ida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida bo`laklarning ko`rinishlariga keskin ta'sir etadi.

Fazo perspektivasi ob'ektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) yil fasllari (bahor, yoz, kuz, qish) hamda atmosfera o`zgarishiga (quyosh yoki bulut) qarab ham o`zgaradi.

Fazoviy perspektivada bir necha asosiy qoidalari mavjud bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

Bajarilayotgan tasvirda rassomga yaqin bo`lgan buyumlar aniq va tiniq, uzoqdagilar esa umumiy holda ko`rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

Fazo bo`shlig'ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo`lsa, xira tusda ko`rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to`g'ri ko`ratish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni biroz engil, oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol, kontrastlar asosida tasvirlash kerak.

Bizga yaqin masofada joylashgan buyumlar yaqqol hajmli bo`lib ko`rinadi va uzoqdagilari esa aksincha, xiraroq ko`rinadi. SHuning uchun ham tasvirlashda ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko`rinadi. Fazoviy perspektivani yanada kuchliroq ko`rsatish uchun yaqin masofadagi yaqqol ko`rinib turgan buyumlarni aniqroq chizgilar bilan, uzoqdagilarni esa ochroq tusda tasvirlash mumkin.

Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o`z tusida (rangida), uzoqdagilari esa umumlashgan tarzda, bir xil bo`lib ko`rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomdan oldingi masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan qoidalar talabaning qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar amal qilishi shart.

Buyumlarni tasvirlashda yorug' va soyalar katta ahamiyatga ega bo`lib, naturaga qo`yilgan buyumlarga yorug'lik tik tushsa ularning tasviri shunchalik yaqqol ko`rinadi. Aksincha chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda tushib bajarilayotgan tasvirni xiraroq bo`lishiga olib keladi. Yorug'lik bir buyumdan urilib (sinib) ikkinchisi va uchinchisiga tushishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- a) yorug'lik;
- b) soya;
- v) yarim soya;
- g) aks yorug'lik;
- d) yaltiroqlik.

Gipsdan yasalgan geometrik shakllarning qalamtasvirini ishlash ham oddiydan murakkabga qarab o`sib boruvchi tartibda amalga oshiriladi. Bunda, o`quv dasturlarida belgilangandek, gipsdan yasalgan geometrik shakllarni tasvirlash muhim. Bu shuning uchun zarurki, bizni o`rab turgan buyumlarning barchasi geometrik shaklga ega (shar, kub, prizma, konus, silindr va

hokazolar). Shakllar tarkibining gipsdan bo`lishining asosiy sababi - ular aksariyat hollarda sun'iy yoritqichlar bilan yoritilib, o`quv-mashq maqsadlarida foydalaniladi. Yorug'-soya majmuasi (yorug', soya, yarim soya, refleks, shaxsiy va tushuvchi soya, yaltiroqlik) oq buyumlarda yaqqol ko`rinadi. Shu o`rinda tabiatda xech qachon sof geometrik shakl uchramaslinini ham unutmashimiz kerak.

Bundan tashqari, oddiy grafit qalam vositasida shakllarning tus munosabatlarini topish talabani tartib bilan ishlashga o`rgatadi. eng muhimi, dasturda ko`rsatilgan murakkab vazifalarni (me'morlik bo`lagi, gips naqsh elementi, inson portreti va gavdasi) bajarishda oddiy geometrik shakllar, tekisliklar zamin bo`lib xizmat qiladi.

2.3. Shar tasvirini ishlash misolida qalamtasvir qonuniyatlarini o`rganish.

Geometrik jismlar tasvirini ishlab tajriba orttirish talaba uchun qalamtasvir qonuniyatlarini egallashining eng muxim sharti hisoblanadi. Odatda kub, shar, tsilindr, prizma, piramida kabi gometrik jismlarni har birini alohida ishlab biroz tajriba orttirilganidan keyingina ularni ja`mlanmasini ishlash tasviya etiladi. Kub, prizma, piramidalarni qirralari borligi uchun talabaga tushuntirish biroz engil kechadi. Prizma va ayniqsa shar kabi sferik sirtlarning hajmini topish tajribasiz o`quvchi uchun murakkablik qiladi. Shuning uchun ham biz tadqiqot ishimizda aynan sharni ishlashga to`xtalib o`tishni lozim topdik.

Sharning qalamtasvirini bajarish mashqlari asosida talaba sferik sirtlardan tashkil topgan buyumlarning kenglikdagi fazoviy holati, yorug'-soya munosabati va o`zaro nisbatlari kabi qonuniyatlar haqida to`la ma'lumotga ega bo`ladi.

Sharning rasmini chizish bilan parallel ravishda talaba ushbu shakllar nusxasini simdan yasab olishi va buyum tekisligida turli holatlarda qo`yib ko`rib, uning joylashish, konstruktiv tuzilishi, perspektiv qisqarishi, shaklning ko`rinar va ko`rinmas tomonlarini yaqqol tasavvur etishi hamda o`z bilimini yanada chuqurlashtirishi mumkin. Bu usul sharni tasvirlashda talabaga engillik tug`diradi.

Chunki bir shakl ikkinchi shaklni to'sib turganda ularning joylashgan eri, birlashgan joylari (burchaklari), o'zaro nisbatlari yaqqol ko'rinmaydi. Auditoriya mashqlari bilan bir qatorda, uyda ushbu geometrik shakllar namunasini vatman qog'ozidan yasab olib, ularni alohida va ikki, uch, to'rt buyum ishtirokida turli kompozitsiyalar tuzib tasvirlash ham muhim. Sharning turli rakurslarda qo'yish va yoritish orqali chizuvchining fazoviy va hajm borasidagi bilim hamda tasavvurlari rivojlanadi.

Sharni tasvirlash 4-bosqichda, metodik ketma-ketlikda olib boriladi. Bunda ularning o'zaro munosabatlarini tasvirlashda yordamchi chiziqlar o'tkazib, ish yuritish metodiga, perspektiva qonunlariga asoslanish kabilarni ko'rishimiz mumkin.

Shar tuzilishining ahamiyatli, o'ziga xos tarafi shundaki, uning yuzasidagi barcha nuqtalar bir nuqtadan - markazdan bir xil o'lchamda tarqaladi. Bizni o'rab turgan borliqdagi ko'plab jismlar masalan, mevalar, sabzavotlar, shar (pufak), futbol, voleybol to'plari va boshqalar ham sfera yoki sharsimon shaklga ega. Sharning chiziqli tasviri faqatgina aylananani to'g'ri chizishdan iborat bo'lsada, shar shaklining hajmli modelini yorug'-soya asosida tasvirlash eng qiyin vazifalardan biri hisoblanadi.


Yorug' - soya yordamida sharning hajmi qay darajada ekanligini tasvirlash imkoniyati borligini bilishimiz kerak. Tasvirdagi yorug' joylar - yorug'lik ko'proq tushgan joyda, to'q joylari esa uning eng keng joyida- ekvatorida bo'ladi. Ularning oralig'ida esa, ya'ni yorug'lik o'tkir burchak ostida tushgan joylarda yarimsoya hosil bo'adi. Bunda yorug'lik ma'lum miqdorda qaytadi va soya hosil bo'ladi. Ushbu soya jism yuzasining soyadagi qismi shaklini xarakterlaydi.

Shuningdek, tushuvchi soya degan tushuncha ham mavjud. Shar shaklini yorug'lik va soya munosabatlari asosida tasvirlash jarayonida yorug'lik qaerdan va qanday tushayotganligini, jism yuzasining qaysi qismi yorug'lik manbaiga eng yaqin joylashganini, o'sha yuzani qay darajada yoritishini, yorug'likning tugashi va soyaning boshlanish joylarini, hamda soya hosil bo'lish sabablarini tasavvur qilish kerak. Shar shaklini yorug' - soya vositasida amalga oshirish ham geometrik


shakllar, masalan kub, trapetsiya shakllari asosida olib borilganda uning hajmliligini ko'rsatish ancha engillashadi. Yorug'-soya munosabatlarining turlicha bo'lishining sababi shundaki, yorug'lik yaqin yuzadan uzoqlashgani sari kamayadi va asta-sekin yorug'likdan soyaga o'tib boradi. Shu sababli ham shardagi yorug'lik-soya munosabatlari murakkab va tasvirlash ham ancha mushkul hisoblanadi. Shar shaklini chizishda, ayniqsa, shar yuzasiga yorug'lik tushayotgan bo'lsa, uning chegaralarini va orqa fonni tasvirlash murakkab ishdir. Bunday holatda shar yuzasining chegarasi ko'rinmaydi va kontur ko'zdan g'oyib bo'ladi. Rasm chizishni boshlash uchun dastlab qog'ozda uni kompozitsiya jihatdan qurib olinadi. Shuningdek, rasm chizish jarayonida metodik ketma-ketlikka rioya qilish kerak. Avval shaklni engil soya tasviri bilan, so'ngra esa butun shakl bo'yicha aniq yorug' va soya munosabatlarini to'g'ri taqsimlash orqali (yorug'lik tushuvchi yuzalarni taqqoslab) chizish lozim.

Ish davomida sharning yorug'lik tushmaydigan, ya'ni soya qismiga to'g'ri ishlov berilganda tasvir rel'efi yanada to'qroq tusda bo'lishi mumkinligini yodda tutish kerak bo'ladi, bunda yorug'likning qaytish darajasi soyadan yorqinroq, ammo yorug'lik tushuvchi yuzadan to'qroq bo'lishi kerak. Sharga yorug'likning qaysi nuqtadan tushishiga qarab, u to'sib turgan erlarida tushuvchi soyalar hosil bo'ladi.


Odatda nimani tasvirini ishlashimizdan qat'iy nazar uni chiziqli tasvirini qurib olamiz. Tajribasiz talaba shunga asoslangan holda sharning ham chetgi chiziqlarini qoraytirib chizib oladi. Natijada, uni hajmini topishda, aynan o'sha chetgi chiziqlar halaqit qiladi. Chizgilar yordamida uni hajmini topmoqchi bo'lamizu, chetgi chiziqlarni qoraytirib uni aksini qilamiz. Aslida esa uni bizga yaqin turgan tomonida chizgilar aniq va ravshan bo'ladi.




Sharni konstruktiv tuzilishini hosil qilish.




Sharni konstruktiv tuzilishini hosil qilishda uni barcha tomonlari markazdan bir xil masofada yotishini unutmaslik kerak bo`ladi.



Sharni tekislik yordamida kesilgan ko`rinishini tasvirlash orqali uni hajmi haqida yanada yaxshi tasavvur hosil qilish mumkin bo`ladi.



Ushbu tasvirlarda sharni uch xil tuslanishini ko`ramiz, a va b tasvirlarda sharni chetgi chizig'i haddan tashqari kuchaytirib yuborilganligi bois uni hajmini topilishga chetgi chiziqlar halaqit qiladi, uchinchi tasvir(v)da esa chetgi chiziqlar sharni umumiy ko`rinishiga bo`ysundirilgan va shu talab darajasida bajarilgan ish sanaladi.



Ushbu tasvirda sharga turli nuqtalardan tushayotgan yorug'lik ta'sirida tushuvchi soyani o'zgarishi aks ettirilgan.

Xulosa.

Qalamtasvir mashg'ulotlari uchun zurrur bo'lgan barcha qonun-qoidalar asrlar davomida ko'plab rassomlarning, o'quv yurtlarida olib borilgan tajribalar asosida vujudga keladi va amalda qo'llaniladi. Qalamtasvir mashg'ulotlarida "akademik maktab" degan tushunchaga birorta lug'at yoki eksiklopediyada izoh berilmagan. Biz olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga asoslangan holda "tasvirlashning barcha qonun-qoidalarini maxsus ixtisoslashgan o'quv yurtida o'qitilishiga aytiladi" degan xulosaga keldik.

Bunday xulosaga kelishimizning boisi tasviriy san'at tarixidan bizga ma'lum bo'lgan mashxur rassomlar ijodini o'rganganimizda, ularning ayrimlarini "akademik maktab ko'rmagan", "akademak tarbiya olmagan" kabi jummlalarni ham o'qib qolamiz. Bunga misol qilib XVIII asr frantsuz rassomi Jan Batist Simoen Sharden (1699-1779)ni olishimiz mumkin. "Sharden rassomlikdan tugal akademik tarbiya olmagan bo'lishiga qaramay, naturadan rasm chizish, hayotni sinchiklab o'rganish uni buyuk frantsuz realist rassomi darajasiga ko'tarilishiga olib keldi. Sharden bu asrda Frantsiya san'atida shakllana boshlagan natyurmort janrida samarali ijod qiladi. U tabiat ne'matlarining rang-barang shakli, xususiyati, hajmi, ko'rinishidan zavqlanib, ularni ifodalashda Evropa rassomlari ichida birinchi kolorist rassom sifatida tan olinadi. Shuningdek, Sharden frantsuz dastgohli rangtasvir san'atida realistik portret yaratgan dastlabki ijodkorlardan biri hisoblanadi"⁹. Bundan uni birorta san'atga ixtisoslashgan o'quv yurtida taxsil olmaganligini bilishimiz mumkin. Demak, u tegishli maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan, o'zi qiziqishidan kelib chiqib rassomlikni o'rgangan. SHardenga o'xshagan akademik bilim olmagan rassomlar ham yo'q emas, ammo ular barmoq bilan sanaydigan darajada xolos.

Ixtisoslashgan litsey yoki kollejda tasviriy san'atdan boshlang'ich ma'lumotni olib universitetga kirgan talaba bilan o'rta umum ta'lim maktabini tamomlab o'qishga kirgan talabani o'rtasida ham farq katta bo'ladi. San'at, madaniyat va dizayn kollejini tamomlagan talaba qalamtasvir qonuniyatlari haqida tushunchaga

⁹ Н. Абдуллаев. Санъат тарихи. 2/1. –Т.; 2001. 39-бет.

ega bo`ladi. Buni esa nazariyani bilgan razryadli shaxmatchiga o`xshatish mumkin. U oldindan raqibini har bir yurishiga qarab qanday partiya o`ynamoqchi ekanligini biladi. Razryadi yo`q, shaxmat nazariyasidan bexabar shaxmatchi esa zaruriyati bo`lmagan yurish ustida ham ortiqchi vaqt sarflaydi, o`zini toliqtiradi.

Buni esa dono xalqimiz “ustoz ko`rmagan shogird har maqomga yo`rg`alar”- deb aytadi. Darhaqiqat, kerakli akademik maktab ko`rgan rassom bilan ustoz ko`rmagan rassom o`rtasida katta farq bo`ladi. Shuning uchun ham oliy o`quv yurtlariga kiruvchi talabalar avvalo, ixtisoslashgan litsey yoki kollejda taxsil olib, kerakli akademik bilimga ega bo`lganidan keyin universitetda taxsil olsalar maqsadga muvofiq bo`ladi.

Universitetlarning 5110800- Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi bakalavriat ta`lim yo`nalishida qalamtasvir mashg`ulotlari 5 semestr davomida o`qitilishi etarli emas. Uni ustiga 4 semestr davomida haftasiga 4 soatdan, 5-semestrda esa atiga 2 soat o`qitilishi juda ham kamlik qiladi. Bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchisi zarur bo`lgan akademik bilimni oladigan univeositetlarda ixtisoslikning etakchi o`quv predmeti bo`lgan qalamtasvirga bo`lgan bunday e`tibor juda ham achinarli hisoblanadi.

Olib borgan tadqiqot ishimiz natijasidan kelib chiqqan holda yuqorida keltirilganlarga qo`shimcha tarzda quyidagi takliflarni ham berishni lozim topdik.

- Har bir rassom akademik bilimga ega bo`lishi shart;
- Qalamtasvir mashg`ulotlarini tashkil qilishda barcha qonuniyatlar talabalarga o`rgatilishi kerak;
- Qalamtasvirga oid maxsus ko`rgazmali qurollar, eletron darsliklarning yangi avlodini yaratish zaurur;
- Amaliy mashg`alotlar jarayonida o`qituvchi tomonidan talabalarga rassomlar tajribasi ma`ruza qilib borilishi lozim.
- Qalamtasvir mashg`ulotlari haftasiga 6-8 soat miqdoridan kam bo`lmagan holatda o`qitilishini yo`lga qo`yish zarur.
- Tajribali rassom-pedagoglarimiz tomonidan “ustoz-shogird” tizimini yo`lga qo`yish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostanasida. -T.: O'zbekiston 2011. 440 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997.
3. I.A.Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: O'zbekiston. 1999. 62 bet.
4. Sh.M.Mirziyoyev «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» Toshkent «O'zbekiston» 2017 y
5. Sh.M.Mirziyoyev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» Toshkent «O'zbekiston» 2016 y
6. 2017-yil 7-fevralda “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoni.
7. B. B. Boymetov. Qalamtasvir. –T.; 2013
8. B. B. Boymetov. Portret qalamtasviri. –T.; 2001
9. S. Abdirasilov, B. Boymetov, N. Tolipov. Tasviriy san`at. –T.; 2006
10. S. Abdirasilov. Tasviriy san`at atamalari. –T.;2002
11. N. U. Abdullaev. San`at tarixi. Ikki jildlik 2/1-tom. –T.; 2001
- A. Sulaymonov, B. Jabbarov. Tasviriy san`atda oqim va yo`nalishlar. –T.; 2008
- B. G'. Jabbarov. Qalamtasvir. Xotira va tasavvur asosida ishlash. –N.; 2014
- C. G'. Jabbarov. Akademik qalamtasvir asoslari. –N.; 2016
12. Nikolay Li. Osnovi uchebnogo akademicheskogo risunka. –M.; 2012
13. N. Rostovtsev. Akademicheskij risunok. –M.; 1984
14. O. Avsiyan. Natura i risovanie po predstavleniyu. M.; 1985
15. Avt. koll. Populyarnaya xudojestvennaya entsiklopediya. Kniga I-II. –M.; 1986
16. Sferik sirtlar. P.Tomas, A.Teylor “Drawing” London-2011. 8-bet

Хорижий тилдаги адабиётлар:

1. Б.В.Веймарн. Живопись молодых художников Узбекистана. –Т.; 1985
2. А.Эгамбердиев. Жанровая живопись Узбекистана. –Т.; 1989
3. М.Мирзарахимов. Проблемы композиции в живописи Узбекистана. Т.; 1989

Мақолалар:


1. Н. Ахмедова. XX аср Ўрта Осиё рангтасвири: ўз-ўзини англаш муаммолари. SAN’АТ. 1999. 3-сон
2. Н. Ахмедова. “Осиё – Арт – 97” SAN’АТ. 1998. 1-3-сонлар.
3. Р. Валиулина. Замонавийлик кифолари. (В. Бурмакин ижодида) SAN’АТ. 1999. 3-сон
4. А. Мирзаев. Рангтасвир хусусияти Ҳақида мулоҳазалар. SAN’АТ. 2000. 1-сон

Internet ma`lumotlari.

- uzvepovt. com
- [http -/ www/anons/ uz/uz/ index. php.](http://www/anons/uz/uz/index.php)
- Gugl

Internet ma`lumotlari

LIGHT ON THE SPHERE



Note the band of darker shadow that appears between the halftone of the light and the reflected light within the shadow. The cast shadow on the ground plane starts from this band.

SHADOW FROM A SPHERE IN PERSPECTIVE

